Jizzax viloyati statistika boshqarmasi

# JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI





***2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra dastlabki ma’lumot***

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## **O‘sish sur’atlari,** foizda




Jizzax viloyati bo‘yicha 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7743,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,3** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1189,7** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **134,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6553,6** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **110,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1297,8** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **115,3 %**) tashkil etdi.

## **Tarkibiy qism,** foizda

**15,4** — Yirik korxonalar

**67,8** — Kichik biznes va xususiy Tadbirkorlik subyektlari

**16,8** — Uyushmagan savdo



## **Uyushmagan savdo,** mlrd. so‘m



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

1. Jizzax sh. 2036,4
2. Baxmal 1411,2
3. Sharof Rashidov 1189,9
4. Zomin 1015,2
5. G‘allaorol 532,3
6. Zarbdor 269,1
7. Paxtakor 284,2
8. Do‘stlik 256,4
9. Forish 233,1
10. Mirzacho‘l 185,2
11. Arnasoy 145,5
12. Zafarobod 114,1
13. Yangiobod 70,4

Jizzax viloyati bo‘yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **7743,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,3** % ni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o‘sish sur’atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **84,6** % o‘sish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **15,4 %** o‘sish yirik korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.



*Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 26,3 % ulush bilan 2036,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



*Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani 0,9% ulush bilan 70,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI




Tumanlarning 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish surati Jizzax sh **(111,0 %)**, Baxmal **(134,1 %), **Yangiobod **(109,7 %)** tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko‘payish sur’atlari kuzatilib, eng yuqori ko‘rsatkich Baxmal tumanida (134,1 %) qayd etildi.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oyilariga nisbatan, foizda | Yirik korxona-lar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 7743,3 | 113,3 | 1189,76 | 134,0 | 6553,6 | 110,2 |
| Jizzax sh | 2036,5 | 111,0 | 187,04 | 118,4 | 1849,4 | 110,3 |
| *tumanlar :* | | | | | | |
| Arnasoy | 145,5 | 105,3 | 1,53 | 96,4 | 144,0 | 105,4 |
| Baxmal | 1411,2 | 134,1 | 872,99 | 135,5 | 538,2 | 132,0 |
| G‘allaorol | 532,4 | 107,6 | 18,75 | 145,6 | 513,6 | 106,6 |
| Sh Rashidov | 1190,0 | 110,2 | 5,44 | 360,3 | 1184,5 | 109,9 |
| Do‘stlik | 256,4 | 108,9 | 5,41 | 73,0 | 251,0 | 110,1 |
| Zomin | 1015,2 | 108,3 | 86,15 | 241,9 | 929,1 | 103,0 |
| Zarbdor | 269,1 | 108,9 | 1,62 | 28,1 | 267,4 | 110,9 |
| Mirzacho‘l | 185,3 | 109,0 | 1,18 | 24,4 | 184,1 | 111,5 |
| Zafarobod | 114,1 | 108,9 | 1,42 | 86,3 | 112,7 | 109,3 |
| Paxtakor | 284,2 | 107,8 | 5,71 | 71,7 | 278,5 | 108,9 |
| Forish | 233,1 | 108,7 | 1,58 | 30,6 | 231,6 | 110,6 |
| Yangiobod | 70,4 | 109,7 | 0,93 | 76,9 | 69,5 | 110,3 |

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## *Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da*

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **34,0 %** ga o‘sdi va **1 189,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **15,4 %** ulushiga to‘g‘ri keldi.

### *Yirik korxonalar*

**Baxmal.**
**873,0**

**Jizzax sh.**
**187,0**

**Zomin.**
**86,1**

### *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

**jizzax sh.**
**1849,4**

**Sh Rashidov.**
**1184,5**

**Zomin.**
**929,1**

## *Eng past ulushga ega hududlar, % da*

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, **6 553,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,2** % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **84,6** % ni tashkil etdi.

### *Yirik korxonalar*

**Yangiobod**
**0,9**

**Mirzacho‘l**
**1,2**

**Zafarabod**
**1,4**



### *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik*

**Yangiobod**
**69,5**

**Zafarabod**
**112,7**

**Arnasoy**
**144,0**

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, *foizda*






*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik* 84,6

*Yirik korxonalar* 15,4

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Sh.Rashidov (**99,5** %), Zarbdor (**99,4** %), Mirzacho‘l (**99,4** %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **15,4** % ni tashkil etib, eng katta ulush Baxmal tumani (**61,9** %), Jizzax shahar (**9,2** %), Zomin (**8,5**%), Paxtakor (**2,0** %) tumanlarida kuzatildi.



## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2022- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga ko‘ra, o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **5 321,9** ming so‘mni (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga **nisbatan 10,8 %** ga oshdi) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida ma’lumot**

| | Hajm, ming so‘m | 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 5 321,9 | 110,8 |
| Jizzax sh | 10 792,0 | 107,1 |
| *tumanlar :* | | |
| Arnasoy | 3 056,7 | 103,6 |
| Baxmal | 8 584,0 | 131,2 |
| G‘allaorol | 2 951,0 | 105,3 |
| Sh Rashidov | 5 109,3 | 108,2 |
| Do‘stlik | 3 764,8 | 107,2 |
| Zomin | 5 878,4 | 105,7 |
| Zarbdor | 2 950,3 | 106,3 |
| Mirzacho‘l | 3 437,0 | 107,2 |
| Zafarobod | 2 195,2 | 106,6 |
| Paxtakor | 3 639,4 | 105,3 |
| Forish | 2 433,6 | 107,1 |
| Yangiobod | 2 412,1 | 108,2 |
| | | |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**10 792,0** ming so‘m), Baxmal (**8 584,0** ming so‘m) va Zomin (**5 878,4** ming so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

***Eng yuqori hajmga ega hududlar***



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda




**Asosiy tarkib,** foizda




Viloyat bo‘yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 297,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **15,3** % ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **609,6** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **2,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **688,2** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **18,5** %) tashkil etdi.

## Savdo hajmi va ulushi



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **609,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**185,9** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**185,9 mlrd. so‘m**



**Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

**9,9 mlrd. so‘m**



**Tuzlamalar**

**28,6 mlrd. so‘m**



**Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo‘shgan holda)

**41,6 mlrd. so‘m**



**Tovuq go‘shti**

**18,9 mlrd. so‘m**



**Ziravorlar**

**62,5 mlrd. so‘m**



**Non va non mahsulotlari**

**41,8 mlrd. so‘m**



**Tuxum**

**69,7 mlrd. so‘m**



**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar)

**29,1 mlrd. so‘m**



**Sut va sut mahsulotlari**

**117,9 mlrd. so‘m**



**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar**

**3,8 mlrd. so‘m**







**Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari** (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so‘m

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **688,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **455,7** mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar **216,7** mlrd. so‘mni, otlar **13,1** mlrd. so‘mni, parrandalar **2,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,1** % ni tashkil etib, **162,8** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **10,0** % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **97,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | **162,8** | **110,0** | **158,4** | **110,0** |
| Jizzax sh | **76,7** | **105,4** | **75,8** | **105,4** |
| *tumanlar :* | **0,0** | | **0,0** | |
| Arnasoy | **1,0** | **97,7** | **0,8** | **97,0** |
| Baxmal | **3,9** | **147,6** | **3,5** | **155,5** |
| G‘allaorol | **9,6** | **105,6** | **9,2** | **105,4** |
| Sh Rashidov | **28,8** | **109,5** | **28,2** | **109,6** |
| Do‘stlik | **6,0** | **120,1** | **5,8** | **120,6** |
| Zomin | **11,5** | **113,6** | **11,1** | **113,9** |
| Zarbdor | **5,4** | **118,5** | **5,2** | **118,9** |
| Mirzacho‘l | **6,1** | **104,8** | **5,9** | **104,7** |
| Zafarobod | **2,7** | **204,7** | **2,5** | **217,3** |
| Paxtakor | **5,3** | **111,1** | **5,1** | **111,2** |
| Forish | **3,5** | **96,0** | **3,3** | **95,3** |
| Yangiobod | **2,2** | **242,8** | **2,1** | **253,4** |

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

1944,4 мlrd. so‘m — Ulgurji savdo hajmi

395,6 мlrd. so‘m — Yirik korxonalar

1548,8 мlrd. so‘m — Mikro firma va kichik korxonalar

Viloyat bo‘yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 944,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **7,4 %** ga o‘sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 548,8** mlrd.so‘mni tashkil qilgan, bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan **15,6 %** ga oshgan. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi **79,7 %** ni tashkil qilgan.

**Savdo aylanmasi ulushi, %da**

20,3 — Yirik korxonalar

79,7 — Mikrofirma va kichik korxonalar

**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** % da






# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Paxtakor (**511,2 %**), Yangiobod (**151,4** %) va Mirzacho‘l (**150,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | **1944,4** | **107,4** | **395,6** | **20,3** | **1548,8** | **115,6** |
| Jizzax sh | **997,0** | **101,0** | **116,3** | **11,7** | **880,7** | **117,0** |
| *tumanlar :* | **0,0** | | **0,0** | | **0,0** | |
| Arnasoy | **5,2** | **171,0** | **0,03** | **0,6** | **5,2** | **174,4** |
| Baxmal | **188,9** | **115,4** | **146,5** | **77,6** | **42,3** | **138,4** |
| G‘allaorol | **63,2** | **136,1** | **0,2** | **0,3** | **63,0** | **136,5** |
| Sh Rashidov | **127,4** | **121,6** | **0,3** | **0,3** | **127,1** | **121,4** |
| Do‘stlik | **158,1** | **87,6** | **66,7** | **42,2** | **91,4** | **114,9** |
| Zomin | **174,1** | **100,6** | **0,02** | **0,0** | **174,1** | **100,6** |
| Zarbdor | **27,7** | **126,2** | **0,02** | **0,1** | **27,7** | **126,3** |
| Mirzacho‘l | **6,5** | **150,8** | **0,1** | **1,8** | **6,4** | **152,8** |
| Zafarobod | **14,6** | **123,5** | **0,02** | **0,1** | **14,5** | **125,8** |
| Paxtakor | **83,1** | **511,2** | **65,0** | **78,2** | **18,1** | **114,1** |
| Forish | **86,0** | **97,4** | **0,3** | **0,4** | **85,7** | **97,6** |
| Yangiobod | **12,5** | **151,4** | **0,03** | **0,2** | **12,5** | **152,5** |